



**ABU NASR FOROBIYNING “FOZIL ODAMLAR SHAHRI”
ASARIDAGI IDEAL JAMIYAT VA UNING BUGUNGI ZAMONAVIY
DAVLAT BOSHQARUVIDAGI AHAMIYATI**

Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Hamidov Begzod Toshpo‘lot o‘g‘li

bekzodhomidov454@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida ilgari surilgan ideal jamiyat haqidagi qarashlar tahlil qilinadi. Asarda jamiyatning mukammal bo‘lishi, avvalo, ma’naviy yetuk, adolatli va bilimdon rahbar shaxsiga bog‘liqligi asoslab berilgan. Forobiy fozil jamiyatni insonlarning o‘zaro hamjihatligi, adolat, axloqiy poklik va ilm-fan ustuvorligi bilan tavsiflaydi. Tadqiqot davomida ushbu g‘oyalarning bugungi zamonaviy davlat boshqaruvi tizimidagi ahamiyati ochib beriladi. Xususan, qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat, mas’uliyatli rahbarlik va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kabi tamoyillar Forobiy qarashlari bilan uyg‘unligi ko‘rsatib o‘tiladi. Maqola natijalari Forobiy merosining zamonaviy boshqaruv modelini takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanini asoslaydi. Shuningdek, Forobiy fozil bo‘lmagan jamiyat turlarini ham tasniflaydi: johil, fosiq va adashgan shaharlar. Bunday jamiyatlarda adolat yo‘qoladi, manfaatparastlik kuchayadi va natijada ijtimoiy inqiroz yuzaga keladi. Bu g‘oyalar hozirgi davrda korrupsiya, boshqaruvdagi samarasizlik va ijtimoiy tengsizlik kabi muammolarni anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi globallashtirish sharoitida Forobiy ilgari surgan adolat, bilim va ma’naviyatga asoslangan boshqaruv tamoyillari demokratik davlat, fuqarolik jamiyati va barqaror rivojlanish konsepsiyalariga uyg‘un keladi. Shu bois Forobiy merosi zamonaviy davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishda muhim falsafiy manba hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Abu Nasr Forobiy, Fozil odamlar shahri, fozil jamiyat, davlat boshqaruvi, adolat.

Kirish: Avvalo bugungi globallashtirish davrida jamiyat taraqqiyoti va davlat boshqaruvi tizimlarida yuz berayotgan tezkor o‘zgarishlar rahbarlik mas’uliyati, adolatli boshqaruv va ma’naviy qadriyatlarga tayanish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda inson manfaatlarini ustuvor qo‘ygan, ilm va axloqqa asoslangan jamiyat modelini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asari bugungi zamonaviy davlat boshqaruvi uchun muhim



nazariy manba hisoblanadi.

Forobiy insonlarning eng takomillashgan jamoasi deb shahar jamoasini korsatadi va uni fazilatli hamda fazilatsiz shahar jamoasiga ajratadi. Razolat va badbaxtlik, obroparast, amalparast, hokimiyatparastlar shaharlari haqida toxtalib otadi. Fazilatli shahar odamlari ozaro birlikda, totuvlikda, ittifoqda yashaydilar, bir-birlariga yordam beradilar, deb hisoblaydi. Forobiy demokratik boshqaruv shaklini yetuk boshqaruv shakli, bunday boshqaruvga asoslangan shaharlarni esa yetuk fozil shahar deb bilmaydi, balki, yomonlikni targ'ib qiluvchi shaharlardan farq qilib, fozil shaharlarga erishuv yolidagi muhim bosqich deb tushunadi. Forobiy ozining ideal jamoasida odamlarni turli belgilariga qarab guruhlarga boladi. Bunda ularning diniy mazhabiga emas, balki tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, avvalo, aqliy iqtidoriga hamda ilmlarni organish va hayotiy tajriba toplash jarayonida orttirgan bilim va konikmalariga katta ahamiyat beradi. Bu jamoada insonlar ilm va yaxshi axloq yordamida baxt-saodatga erishadi. Forobiy davlatni boshqarishning turli shakllari haqida fikr yuritib, davlatni yetuk shaxs (monarxiya), yetuk xislatlarga ega bolgan bir necha shaxslar (aristokratiya) va saylangan shaxslar (demokratiya) boshqarishi mumkin, deb korsatgan. Forobiyning jamiyatni boshqarish haqida fikr yuritib, jamiyatni boshqarish alohida san'at, deb hisoblaydi. Axloq va faoliyatda izchil, bir normada, ya'ni bir me'yorda ish olib boruvchi kishi jamiyat va mulkda faol ishtirok etadi. Faoliyatda topish san'ati rahbarlik qilish san'atidir. Allomaning fikricha, davlat rahbari shunday san'atga ega bolishi kerakki, u biron narsaga xizmat qilish vositasi ham boshqa san'at tomonidan boshqarilish obyekti ham bolishi mumkin emas. Hokimlik san'atiga boshqa barcha san'atlar boysunadi. Bunday sanatga ega insonni boshqa hech kim boshqarmaydi, u komillikka erishgan hamda amaldagi aql va tushunchaga aylangan. Bunday inson yuksak darajadagi komillikka erishgan bolishi va saodatning choqqisida bolishi kerak. Unga baxtga erishishga yordam beradigan har qanday harakat ma'lum. U oz bilimini sozlar orqali yaqqol ifodalashni va odamlarni eng yaxshi usullar bilan baxtga yonaltirishni bilishi kerak. Bunday xislatlarga esa komil faylasuflargina ega. Baxt-saodatga erishuv va tug'ma qobiliyatlarning rivojlanishi oz-ozicha bolavermaydi, balki bu masalada qandaydir bir muallim yoki rahbarga muhtojlik tug'iladi. Bu bilan Forobiy jamiyat qanday bolsa, odamlarning ham shunday turini tarbiyalaydi, aksincha odamlar qanday bolsalar jamiyatning ham shunday turini yaratadilar, demoqchi. Albatta, Forobiy ijtimoiy turmushdagi barcha voqea va hodisalarga oz davri sharoitidan, feodal tuzum mohiyatidan kelib chiqib baho bergan, shu sababli o'sha davr jamiyatlarini o'z maqsad va vazifasiga, tutgan yoliga qarab axloqsizlar jamoasi, bosqinchilar jamoasi, jabr-zulmga asoslangan jamoa, boylik toplashni, kayfu-safoni maqsad qilib



olgan jamiyatlarga ajratgan. Ming afsuski, bunday salbiy illatlar bizning davrimizda ham uchraydi. Shu bois, deydi alloma, ta'lim-tarbiya yoli bilan bunday salbiy illatlarni va kishilardagi jirkanch fe'l-atvorlarni tuzatish mumkin. Uning uqtirishicha, rahbarlar mansabdan oz shaxsiy manfaatini ta'minlash, iflos mayllarini qondirish, mol-dunyo toplash, nafs balosiga erk berish, ozgalarni oziga boysundirish, xalqni ezish, aldash, haqoratlash unga har qanday yollar bilan zulm

o'tkazish vositasi sifatida emas, balki barcha fuqarolarini teng huquqliligini kafolatlash, adolatni qaror toptirish, xalqni erkin va ozod, tinch va osoyishta hayot kechirishni ta'minlash vositasi sifatida foydalanishi lozim. Inson barcha a'zolari solim, butun, mukammal ishlab turganida sog'lom bo'lganiday, barcha aholisi go'zal, yaxshi xulqli, yaxshi ishlar bilan bir-biriga yordam beruvchi shahar ham fozil odamlar shahridir [2]. Ya'ni asarda inson ta'na a'zolariga qiyoslanishni kuzatishimiz mumkin. Jumladan, badan a'zolari o'z vazifasiga ko'ra bir-biridan farqlanadi va barcha a'zolar qalbga, yurakga bog'lanadi. Yurakga vositasiz bog'langan a'zolar, vositali bog'langan a'zolarga nisbatan ancha baland mavqega ega. Shunga qaramasdan, bu a'zolari barchasining katta va kichik vazifalari bor. Aynan kichik a'zolar ham o'z vazifasini yaxshi bajarolmasa, inson sog'lig'iga yetarlicha ziyon yetishi mumkin. Davlat boshqaruvi ham shunga monand bo'lib, davlat rahbari yurak kabi asosiy vazifani bajarishi, undan keyingi lavozimlar ikkinchi darajali bo'laklar bo'lib, ular ham vazifasi va qobiliyatiga qarab, kattakichik qismlarga bo'linadi va har bir qism o'z vazifasi uchun javobgar hisoblanadi. Abu Nasr Farobiy o'z asarida "Fozil odamlar shahri" hukmdorining fazilatlarini ham bayon etadi. Bunday shaxslar go'zal xulq, fazilatlar va qobiliyatlarga ega bo'lib, ular o'z faoliyatida Tangrining buyurganlarini, oliy maqsadni ko'zlaydilar va bu jarayonlarda ul zotdan quvvat oladilar. "Fozil odamlar shahrining rahbari ham ana shunday, Xudo taolo siylab, nazar qilgan barkamol insonlardir. Shahar-davlatning boshqa a'zolari ham rais, rahbar oldiga qo'ygan maqsadiga yetish uchun harakat qiladilar. Rahbar bo'lishning avvalgi ikki sharti: 1. Inson tabiatida rahbarlik qilish qobiliyati (ma'naviy va aqliy yetuklik) bo'lishi zarur 2. Bunday odam yuqori mavqeyi, insoniy fazilatlarini, qobiliyatlari bilan xalq orasida hurmat qozongan bo'lishi zarur.

Rahbarlik sohasida tajriba orttirish ham muhim" [3]. Bunday insonlar moddiylikka bog'lanmagan, ruhiy va ma'naviy olami yuksak, barkamol shaxslar hisoblanadi. Uning ruhi faol aql bilan bog'langanligi tufayli u barcha insonlarni baxt-saodatga yetaklashini olim ta'kidlaydi va bunday odam aqliy, ma'naviy va jismoniy jihatdan ham sog'lom ekanligini keltirib o'tadi. "Fozil odamlar shahri" hukmdori aynan shunday fazilatlariga ega ekanligi, bundan tashqari yana o'n ikkita xislatni ham o'zida aks ettirishi lozimligi aytiladi.



O'sha xislatlardan biri, hukmdor tabiatan adolatparvar bo'lib, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlamganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o'zi suyg'an go'zalliklarni ravo ko'ruvchi shaxs bo'lishi zarurdir.

Forobiy ushbu asarida ideal jamiyat va fozil rahbar tushunchalarini keng yoritib, insonlarning baxt-saodatga erishishi adolat, bilim va yuksak ma'naviyatga asoslangan boshqaruv orqali amalga oshirishini ta'kidlaydi. Bugungi kunda davlat boshqaruvida shaffoflik, ijtimoiy adolat va rahbarlarning mas'uliyatini oshirish masalalari dolzarb bo'lib, Forobiy qarashlari ushbu jarayonlarni falsafiy jihatdan boyitadi. Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida ilgari surilgan ideal jamiyat g'oyalari hozirgi zamon davlat boshqaruvida yuksak ahamiyat kasb etadi. Forobiy ideal jamiyatning markazida fozil rahbar turishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, davlat boshlig'i nafaqat siyosiy, balki ma'naviy yetuk shaxs bo'lishi kerak. Zamonaviy davlat boshqaruvida inson manfaatlari, adolatli boshqaruv va qonun ustuvorligi asosiy tamoyillar hisoblanadi. Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurash, ochiq va shaffof boshqaruv, davlat xizmatchilarining axloq kodeksiga rioya etishi kabi masalalarda Forobiy ta'limoti muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida davlatni insonlarni baxt-saodatga yetaklovchi ijtimoiy tuzilma sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, jamiyatning barkamolligi bevosita rahbarning bilimli, adolatli va yuksak axloq egasi bo'lishiga bog'liq. Fozil rahbar xalqni majburlash orqali emas, balki ilm, adolat va shaxsiy namuna orqali boshqarishi lozim. Bu borada prezidentimiz **Shavkat Mirziyoyev**ning davlat boshqaruvi haqidagi qarashlarida ham rahbar mas'uliyati va xalq manfaatiga xizmat qilish ustuvor o'rin tutadi. Uning "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oyasi Forobiyning jamiyatga xizmat qiluvchi rahbar haqidagi qarashlari bilan mazmunan uyg'undur. Zamonaviy boshqaruvda bu tamoyil ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlik orqali amalga oshirilmoqda. Farobiy bu asari orqali tizimli boshqaruv ya'ni demokratiyani to'g'ri ekanligini isbotlaydi. Demokratik davlatda inson manfaati, qadr-qimmat, hayoti har narsadan yuqori turadi. Bunday davlat o'zini o'zi boshqarish, ko'p partiyalilik, ommaviy axborot vositalarining erkin bo'lishi, fikrlar xilma-xilligiga sharoit yaratadi. Biroq demokratiya hamma narsada xohlagancha erkinlik emas, qonunga asoslangan erkinlikdir. Demokratiyaning ajralmas qismi intizom, qonunlarni hurmat qilish, boshqalarning haq-huquqini himoya qilishdir. Demokratiya tartibotlari huquqiy davlatda mukammal rivojlanib boradi. Demokratik boshqaruvda avvalo rahbar shaxs o'z xalqi manfaatidan kelib chiqqan holda oqilona qaror chiqarishi lozimdir. "Fozil odamlar shahri" asarida ideal jamiyatni xalq farovonligi va adolatga asoslangan boshqaruv orqali shakllanadi deb ta'kidlaydi. U rahbari xalq xizmatida turuvchi yetuk shaxs sifatida ko'radi va qaror qabul qilish



jarayonida xalq manfaatini ustun qo'yish muhimligini bildiradi. Forobiy g'oyalarida demokratiya zamonaviy shaklda emas, lekin xalq manfaatini hisobga olgan, adolatli va fozil rahbar boshqaruvida amalga oshadigan boshqaruv tamoyili mavjud. Bu nuqtai nazardan, Forobiy ideal jamiyat modeli va demokratik boshqaruv tamoyillari bir-biriga yaqin deb hisoblaydi. Zamonaviy davlat boshqaruvi raqamlashtirish, samaradorlikni oshirish, shaffoflikka erishish, fuqarolar bilan ochiq muloqot qilish va xalqaro tajribalarni qo'llashga asoslanadi, bunda davlat xizmatlarining qulayligi (yagona reyestr), byurokraziyani kamaytirish va korrupsiyaga qarshi kurash asosiy ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi. Davlat boshqaruvi jarayonida to'g'ri qarorlar qabul qilinishini, ularning samarali ijro etilishini va belgilangan maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan muhim mexanizmdir. Bunda tegishli idoralar va mutasaddilar o'z vakolatlari doirasida mas'uliyat bilan ish tutishi, amalga oshirilayotgan loyihalar hamda dasturlar yuzasidan muntazam hisobot berishi talab etiladi. Shu tariqa, ijro jarayonlari davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qonunbuzarliklar yoki iqtisodiy zararlar o'z vaqtida aniqlanadi va oldi olinadi. Davlat organlarining xalq oldidagi hisob berish amaliyoti esa boshqaruv tizimida shaffoflikni kuchaytiradi, bu esa fuqarolarning ishonchini mustahkamlaydi. Natijada, davlat boshqaruvining umumiy samaradorligi ortadi, siyosiy barqarorlik mustahkamlanadi va islohotlar o'z vaqtida real natija beradi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" kitobida ideal davlat andozasi va fuqarolik jamiyati tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, o'rta asrlar siyosiy ta'limotlarining yanada rivojlanishiga imkon yaratdi. Bu qarashlar yangi davr siyosiy nazariyalari shakllanishiga ham turtki bo'ldi. "Olim shahar-davlat birlashmasining hayoti va o'ziga xosligi, davlatning funksiyalari, va uni boshqarish shakllari, davlat birlashmasining vazifasi va pirovard maqsadi, yalpi birlashuvga erishishning yo'llari va usullari kabi masalalarni ko'rib chiqadi [5]. "Fozillar jamiyatining adolatli bo'lishi va tabaqalar o'rtasida tafovutlarning saqlanishida adolat huquqiy kategoriya vazifasini bajaradi. Ana shu jihatlardan yondashganda Farobiyning adolat g'oyasiga nisbatan ishlatgan ta'rifi Platon talqinlariga yaqindir". Bundan tashqari haqiqiy lider shaxs qanday bo'lishi kerakligi haqida aniq-ravshan ma'lumotlarni keltirdi. Fozil shahar, undagi umumiy madaniy ravnaq munosabati bilan Forobiy axloq, xulq-odob masalalariga juda katta e'tibor berdi. Xulq-odob masalalarini Forobiy insonning intellektual sifatleri – «aqliligi», «donoligi» bilan uzviy bog'liq holda olib tekshirdi. Shuning uchun u qayd qilgan va tahlil etgan axloqiy tushunchalar, kategoriyalar kishilarning o'zaro munosabatlarida mavjud bo'lgan xulq normalarining ifodasigina emas, balki kishilarning o'z hayotlari davomida olib borgan aqliy faoliyatining natijasi sifatida talqin etadi. Forobiy fozil shaharning



fozil hukmdori timsolida odamlarga haqiqiy baxt-saodatga erishish yo'llarini ko'rsatuvchi va komil inson g'oyasini ilgari suruvchi buyuk allomadir. Uning g'oyalari O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurishda yetakchi bo'lib kelayotgan shahar, tuman va viloyatlarning hokimlari hamda boshqa rahbarlar uchun ibrat maktabidir. Ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy-madaniy merosda shunday fikrlar borki, ular bugungi kunda ham taraqqiyotimizning o'ziga xos yo'lini belgilashda o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Xalqimiz madaniyatini, milliy istiqlool mafkurasini rivojlantirishda madaniy merosimiz, undagi ilm - fan, ijtimoiy-siyosiy, ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarni o'zlashtirish va amalga tatbiq qilish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Zero, «o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi.

Bu ko'rsatmalar asrlar osha siyosiy shahslar uchun dasturiy bo'lib kelmoqda. Forobiy ilm va ma'naviyatni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili deb biladi. Zamonaviy davlatlarda ham ta'lim, ma'naviy tarbiya va intellektual salohiyatni oshirish strategik vazifa sifatida qaralmoqda. Bu jihatdan, Forobiyning qarashlari bugungi islohotlar uchun mustahkam falsafiy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asari
2. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: O'zbekiston, 2016. – 14 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 41.
4. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar 7-jild. – T.: O'zbekiston, 1999. – B. 90. 4. Barkamol avlod orzusi. – T., 1999. – B. 54.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.
5. Abdullayev, S. Ijtimoiy falsafa. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
7. Qodirov, B. Davlat va jamiyat boshqaruvi nazariyasi. — Toshkent: Akademiya, 2018.